



## **Toshkent viloyatida chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi**

*2025- yil yanvar-iyul dastlabki ma'lumot*

- I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI**
- II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI**
- III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI**
- IV. METAMA'LUMOTLAR**
- V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR**


### **I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI**

2025- yil 1- avgust holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 8 715 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 27 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 8 688 tani tashkil qildi.


2025- yilning yanvar-iyul oylarida Toshkent viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 21 858,5 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 109,1 % ga teng bo'ldi.

Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 3 096,9 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 2,8 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 18 761,6 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 10,2 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1 764,1 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 8,1 %) tashkil etdi.

### **Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (%da)**



**Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi  
(ulushi foizda)**




**II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI**

2025- yil 1- avgust holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 2 706 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 10 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 2 696 tani tashkil qildi.

Toshkent viloyati bo'yicha 2025- yilning yanvar-iyul oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 29 411,4 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 11,9 % ga o'sdi.

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 24 091,6 mlrd so'mni tashkil qilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 9,7 % ga to'g'ri keldi. Toshkent viloyatining jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi 81,9 % ni tashkil qildi.


**Ulgurji savdo hajmi dinamikasi (mlrd so'm)**





Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'ati Quyi Chirchiq (22,0 m.), Zangiota (10,9 m ) tumanlari hamda Chirchiq (3,7 m.) shahrida kuzatildi.

**Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)**




**III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI**

2025- yil 1- avgust holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 2 706 tani tashkil etib, shundan faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 10 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 2 696 tani tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-iyul oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 7 934,5 mlrd so'mga yetdi. 2024- yilning mos davriga nisbatan 13,4 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 78,2 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.



### Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)



#### IV. METAMA'LUMOTLAR

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliy hisoblar tizimi – 2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuv va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo'mitasi, 2011) holda ishlatiladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda hisoblangan.

**Chop etishga masul:**  
Xizmatlar va savdo sohasi  
statistikasi bo'limi

**Ijrochi:** M.Mirzokirov  
Tel: (+99871)203-45-00  
(4541)

**Manzil:** Toshkent shahar  
Mirobod tumani Yangi Qo'yliq  
ko'chasi, 2-uy